

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-sentabrdagi PQ-286-son qaroriga  
1-ILOVA

**2025-2026-yillarda hududlarni raqamli transformatsiya qilish bo'yicha ustuvor loyihalar**

**RO'YXATI**

| T/r                                                                                          | Chora-tadbirlar nomi                                                                | Amalga oshirish mexanizmi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      | Muddati                                                        | Moliyalashtirish manbai                                                               | Ijrochilar                                                         |
|----------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|
| <b>Qoraqalpog'iston Respublikasi (mas'ul: Sh. Shermatov — raqamli texnologiyalar vaziri)</b> |                                                                                     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |                                                                |                                                                                       |                                                                    |
| <b>I. Telekommunikatsiya infratuzilmasi va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish</b>       |                                                                                     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |                                                                |                                                                                       |                                                                    |
| 1.                                                                                           | Optik tolali aloqa liniyalarini kengaytirish.                                       | 1. Qoraqalpog'iston Respublikasida optik tolali aloqa liniyalari bilan qamrov darajasini o'rganish.<br>2. Aholi maskanlarini optik tolali aloqa liniyalari bilan ta'minlash bo'yicha 2025-2026-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlarni belgilash.<br>3. Hududda 5 400 km aloqa liniyalarini qurish ishlarini amalga oshirish:<br>2025-yil — 3 100 km;<br>2026-yil — 2 300 km. | 2025-yil oktabr<br><br>2025-yil noyabr<br><br>2025-2026-yillar | Telekommunikatsiya operatorlari mablag'lari                                           | Raqamli texnologiyalar vazirligi, telekommunikatsiya operatorlari  |
| 2.                                                                                           | Mobil aloqa operatorlari tomonidan keng polosali mobil internet qamrovini oshirish. | Qoraqalpog'iston Respublikasining shahar va tumanlarida 179 ta tayanch stansiya o'rnatish va modernizatsiya qilish. Jumladan:<br>2025-yil — 89 ta;<br>2026-yil — 90 ta.                                                                                                                                                                                                        | 2025-2026-yillar                                               | Qurilmalarni yetkazib beruvchining kreditlari va mobil aloqa operatorlari mablag'lari | Raqamli texnologiyalar vazirligi, mobil aloqa operatorlari         |
| <b>II. Ijtimoiy sohada axborot texnologiyalarini joriy etish</b>                             |                                                                                     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |                                                                |                                                                                       |                                                                    |
| 3.                                                                                           | Umumiy o'rta ta'lim muassasalariga birlashtirilgan mikrohudud                       | 1. "Raqamli Toshkent" platformasi tajribasi asosida umumiy o'rta ta'lim                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | 2026-yil aprel                                                 | Budjetdan tashqari mablag'lar, qonunchilik hujjatlari bilan                           | Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Kadastr agentligi, |

|    |                                                                                                                                                                                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |                                      |                                                                                                                                      |                                                                              |
|----|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------|
|    | manzillarini raqamlashtirish.                                                                                                                                                                    | maktablariga biriktirilgan mikrohudud manzillarini raqamlashtirish.<br>2. Umumta'lim maktablarini onlayn qabul jarayoni amalga oshiriladigan elektron platformaga integratsiya qilish.<br>3. 2026/2027 o'quv yilida qabul jarayonlari onlayn shaklga o'tkaziladigan tuman va shaharlarni belgilash hamda qabul jarayonlarini tashkil etish. | 2026-yil may<br><br>2026-yil iyul    | taqiqlanmagan boshqa mablag'lar                                                                                                      | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi                                      |
| 4. | Qoraqalpog'istondagi barcha statsionar davolash muassasalarida lokal tarmoqlarni tashkil etish.                                                                                                  | 1. Hududdagi statsionar davolash muassasalarida lokal tarmoqlar joriy holatini xatlovdan o'tkazish.<br>2. Statsionar davolash muassasalarida ichki lokal tarmoqlarni tashkil etish.                                                                                                                                                         | 2025-yil noyabr<br><br>2026-yil mart | Xalqaro moliya institutlari mablag'lari, budjetdan tashqari mablag'lar, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar | Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi |
| 5. | Barcha sport maktablarida biometrik identifikatsiya (Face ID) tizimi orqali trenerlar va sport bilan shug'ullanuvchilarning kunlik davomatini elektron monitoring qilib borishni yo'lga qo'yish. | 1. Sport maktablari xodimlarini "ERP-Sport" yagona elektron boshqaruv tizimidan foydalanish bo'yicha o'qitish va xodimlarni tizimga ulash.<br>2. "ERP-Sport" yagona elektron boshqaruv tizimida kunlik davomatni elektron monitoring qilib borishni yo'lga qo'yish.                                                                         | 2025-yil noyabr<br><br>Doimiy        | Ijrochilar mablag'lari                                                                                                               | Sport vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi             |

|    |                                                                                                                                                                                                             |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |                                                                   |                                                                                      |                                                                                   |
|----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|
| 6. | Hududdagi barcha qonun hujjatlari buzilganligi uchun ushlangan transport vositalarini saqlash va joylashtirish maydonlarida “Jarima maydonchasi” axborot tizimini joriy etish.                              | <p>1. Transport vositalarini saqlash va joylashtirish maydonlarini xatlovdan o‘tkazish.</p> <p>2. Axborot tizimiga hududdagi barcha tuman (shahar)dagi transport vositalarini saqlash va joylashtirish xizmatini ko‘rsatuvchi yuridik shaxslarni ulash.</p> <p>3. Axborot tizimini transport vositalarini saqlash va joylashtirish xizmatini ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar faoliyatiga joriy qilish va ularni o‘qitish.</p> | <p>2025-yil noyabr</p> <p>2025-yil dekabr</p> <p>2026-yil may</p> | Ijrochilar mablag‘lari                                                               | Ichki ishlar vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi           |
| 7. | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumanidagi “Kemalar qabristoni” — ochiq osmon ostidagi kemalar muzeyi majmuasining virtual 3D modelini ishlab chiqish.                                                | <p>1. Mo‘ynoq tumanidagi “Kemalar qabristoni” ochiq osmon ostidagi muzeyni vizuallashtirish.</p> <p>2. Muzeyning virtual 3D modelini ishlab chiqish.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                    | <p>2026-yil sentabr</p> <p>2026-yil dekabr</p>                    | Ijrochilar mablag‘lari                                                               | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi                                   |
| 8. | Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi umumta’lim maktabi o‘quvchilarini IT va xorijiy tillarga o‘qitish bo‘yicha “Muhammad al-Xorazmiy vorislari” loyihasi uchun moddiy-texnik baza va infratuzilmani yaratish. | <p>1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan loyihani amalga oshirish uchun binolar ajratish va zaruratga ko‘ra ta’minlash.</p> <p>2. O‘quv xonalarini Raqamli texnologiyalar vazirligi so‘roviga ko‘ra jihozlash va zarur moddiy-texnik baza bilan ta’minlash.</p>                                                                                                                                      | <p>2026-yil yanvar</p> <p>2026-yil fevral</p>                     | Ijrochilar mablag‘lari, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Raqamli texnologiyalar vazirligi |

|                                                                    |                                                                                                                                                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |                                 |                                                                                             |                                                                                                                            |
|--------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                                                    |                                                                                                                                                                                                          | 3. Binolarni saqlashni amalga oshirish.                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | doimiy                          |                                                                                             |                                                                                                                            |
| 9.                                                                 | “Muhammad al-Xorazmiy vorislari” loyihasi doirasida yoshlarni o‘qitishni tashkil etish.                                                                                                                  | 1. “Muhammad al-Xorazmiy vorislari” loyihasiga iqtidorli o‘quvchilarni saralash.<br>2. Ta’lim jarayonlariga malakali mentorlar va loyiha menejerlarni jalb qilish.<br>3. O‘quv jarayonlarini olib borish, ta’lim sifatini monitoring qilish.<br>4. O‘rnatilgan tartibda mentorlar, menejerlar va texnik xodimlar mehnatiga haq to‘lab borish. | 2026-yil davomida<br><br>doimiy | Ijrochilar mablag‘lari, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar        | Raqamli texnologiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi                                                   |
| 10.                                                                | Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi umumta’lim maktablari informatika fani o‘qituvchilari uchun yangi texnologiyalar hamda sun’iy intellekt bo‘yicha ekspertlar tomonidan amaliy treninglar tashkil etish. | 1. Respublikadagi informatika fani o‘qituvchilari uchun “Infoteach 2026” forumi konsepsiyasini ishlab chiqish.<br>2. Malakali ekspertlar ishtirokida forum tashkil etish, informatika fani o‘qituvchilarining yangi texnologiyalar hamda sun’iy intellekt bo‘yicha ko‘nikmalarini oshirish.                                                   | 2026-yil mart                   | Ijrochilar mablag‘lari, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar        | Raqamli texnologiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi |
| <b>III. Suv xo‘jaligi sohasida axborot tizimlarini joriy etish</b> |                                                                                                                                                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |                                 |                                                                                             |                                                                                                                            |
| 11.                                                                | Hududdagi mavjud gidrotexnik inshootlarning raqamli xaritasini shakllantirish.<br>Qishloq xo‘jaligi sohasida suv resurslari oxirgi iste‘molchigacha yetib borishini                                      | 1. Hududdagi suv xo‘jaligi obyektlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni “ArcGIS” axborot tizimiga kiritish.<br>2. Suv xo‘jaligi obyektlari,                                                                                                                                                                                                         | 2026-yil dekabr                 | Budjetdan tashqari mablag‘lar, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar | Suv xo‘jaligi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi                                                   |

|                                                                                                      |                                                                                     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                |                                                                                     |                                                                   |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------|
|                                                                                                      | monitoring qilish imkoniyatini yaratish.                                            | jumladan, barcha irrigatsiya tarmoqlarining yagona raqamli xaritalari bazasini yaratish.<br>3. Qishloq va suv xo'jaligi sohasida suv resurslari oxirgi iste'molchigacha yetib borishini monitoring qilish imkoniyatini yaratish. Bunda kosmik texnologiyalar imkoniyatlaridan ham foydalanishni yo'lga qo'yish.                                                     |                                                                |                                                                                     |                                                                   |
| <b>Andijon viloyati (mas'ul: O. Umarov — raqamli texnologiyalar vazirining birinchi o'rinbosari)</b> |                                                                                     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                |                                                                                     |                                                                   |
| <b>I. Telekommunikatsiya infratuzilmasi va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish</b>               |                                                                                     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                |                                                                                     |                                                                   |
| 12.                                                                                                  | Optik tolali aloqa liniyalarini kengaytirish.                                       | 1. Andijon viloyatida optik tolali aloqa liniyalari bilan qamrov darajasini o'rganish.<br>2. Aholi maskanlarini optik tolali aloqa liniyalari bilan ta'minlash bo'yicha 2025-2026-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlarni belgilash.<br>3. Viloyatda 4 100 km aloqa liniyalarini qurish ishlarini amalga oshirish:<br>2025-yil — 2 400 km;<br>2026-yil — 1 700 km. | 2025-yil oktabr<br><br>2025-yil noyabr<br><br>2025-2026-yillar | Telekommunikatsiya operatorlari mablag'lari                                         | Raqamli texnologiyalar vazirligi, telekommunikatsiya operatorlari |
| 13.                                                                                                  | Mobil aloqa operatorlari tomonidan keng polosali mobil internet qamrovini oshirish. | Andijon viloyatining shahar va tumanlarida 145 ta, jumladan, 2025-yil — 71 ta, 2026-yil 74 ta tayanch stansiya o'rnatish va                                                                                                                                                                                                                                         | 2025-2026-yillar                                               | Qurilmalarni yetkazib beruvchining kreditlari, mobil aloqa operatorlari mablag'lari | Raqamli texnologiyalar vazirligi, mobil aloqa operatorlari        |

|                                                                  |                                                                                                                             |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |                                      |                                                                                                                                      |                                                               |
|------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------|
|                                                                  |                                                                                                                             | modernizatsiya qilish.                                                                                                                                                                                                                                                                                             |                                      |                                                                                                                                      |                                                               |
| <b>II. Ijtimoiy sohada axborot texnologiyalarini joriy etish</b> |                                                                                                                             |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |                                      |                                                                                                                                      |                                                               |
| 14.                                                              | Viloyatdagi barcha statsionar davolash muassasalarida lokal tarmoqlarni tashkil etish.                                      | 1. Viloyatdagi statsionar davolash muassasalarida lokal tarmoqlar joriy holatini xatlovdan o'tkazish.<br>2. Statsionar davolash muassasalarida lokal tarmoqlarni tashkil etish.                                                                                                                                    | 2025-yil oktabr<br><br>2026-yil mart | Xalqaro moliya institutlari mablag'lari, budjetdan tashqari mablag'lar, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar | Sog'liqni saqlash vazirligi, Andijon viloyati hokimligi       |
| 15.                                                              | 55 ta MFYni "Raqamli mahalla" axborot tizimini samarali joriy etish doirasida zarur kompyuter qurilmalari bilan ta'minlash. | MFYni 55 ta zamonaviy kompyuter qurilmalari bilan ta'minlash.<br>Jumladan:<br>Andijon tumanida — 10 ta;<br>Asaka tumanida — 5 ta;<br>Baliqchi tumanida — 8 ta;<br>Buloqboshi tumanida — 7 ta;<br>Bo'ston tumanida — 10 ta;<br>Izboskan tumanida — 5 ta;<br>Jalaquduq tumanida — 8 ta;<br>Marhamat tumanida — 2 ta. | 2025-2026-yillar davomida            | Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasi mablag'lari hisobidan                                              | O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Andijon viloyati hokimligi |
| 16.                                                              | Umumiy o'rta ta'lim muassasalariga biriktirilgan mikrohudud manzillarini raqamlashtirish.                                   | 1. "Raqamli Toshkent" platformasi tajribasi asosida umumiy o'rta ta'lim maktablariga biriktirilgan mikrohudud manzillarini raqamlashtirish.<br>2. Umumta'lim maktablarini onlayn qabul jarayoni amalga oshiriladigan elektron                                                                                      | 2026-yil aprel<br><br>2026-yil may   | Budjetdan tashqari mablag'lar, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar                                          | Andijon viloyati hokimligi, Kadastr agentligi,                |

|     |                                                                                                                                                                                                |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |                                                                                  |                                                                                      |                                                                          |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------|
|     |                                                                                                                                                                                                | platformaga integratsiya qilish.<br>3. 2026/2027 o'quv yilida qabul jarayonlari onlayn shaklga o'tkaziladigan tuman va shaharlarni belgilash hamda qabul jarayonlarini tashkil etish.                                                                                                                                                         | 2026-yil iyul                                                                    |                                                                                      | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi                                  |
| 17. | Andijon viloyatidagi umumta'lim maktabi o'quvchilarini IT va xorijiy tillarga o'qitish bo'yicha "Muhammad al-Xorazmiy vorislari" loyihasi uchun moddiy-texnik baza va infratuzilmani yaratish. | 1. Mahalliy hokimlik tomonidan Andijon shahrida loyihani amalga oshirish uchun bino ajratish va zaruratga ko'ra ta'mirlash.<br>2. O'quv xonalarini Raqamli texnologiyalar vazirligi so'roviga ko'ra jihozlash va zarur moddiy-texnik baza bilan ta'minlash.<br>3. Binolarni saqlashni amalga oshirish.                                        | 2026-yil yanvar<br><br><br><br><br><br><br>2026-yil fevral<br><br><br><br>doimiy | Ijrochilar mablag'lari, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar | Andijon viloyati hokimligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi             |
| 18. | "Muhammad al-Xorazmiy vorislari" loyihasi doirasida yoshlarni o'qitishni tashkil etish.                                                                                                        | 1. "Muhammad al-Xorazmiy vorislari" loyihasiga iqtidorli o'quvchilarni saralash.<br>2. Ta'lim jarayonlariga malakali mentorlar va loyiha menejerlarni jalb qilish.<br>3. O'quv jarayonlarini olib borish, ta'lim sifatini monitoring qilish.<br>4. O'rnatilgan tartibda mentorlar, menejerlar va texnik xodimlar mehnatiga haq to'lab borish. | 2026-yil davomida<br><br><br><br>doimiy                                          | Ijrochilar mablag'lari, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar | Raqamli texnologiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi |

|                                                                 |                                                                                                                                                                                             |                                                                                                                                                                                                                                                                                          |                                                                |                                                                                             |                                                                                                       |
|-----------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 19.                                                             | Xotin-qizlarni raqamli ta'limga yo'naltirish, ularga masofadan turib daromad topish imkoniyatlarini yaratish maqsadida "Digital Girls" loyihasini rivojlantirish.                           | 1. Loyiha dasturi va rejasini ishlab chiqish.<br>2. Tanlov asosida IT sohasiga qiziquvchi nomzod xotin-qizlarni tanlab olish.<br>3. Loyiha doirasida 5 ta yo'nalishda grant asosida IT kurslar tashkil etish.                                                                            | 2025-yil oktabr<br><br>2026-yil davomida                       | Budjetdan tashqari mablag'lar, homiylik va ijrochilar mablag'lari                           | Andijon viloyati hokimligi, "Andijan Digital City" texnologik parki                                   |
| 20.                                                             | Andijon viloyatidagi umumta'lim maktablari informatika fani o'qituvchilari uchun yangi texnologiyalar hamda sun'iy intellekt bo'yicha ekspertlar tomonidan amaliy treninglar tashkil etish. | 1. Viloyatdagi informatika fani o'qituvchilari uchun "Infoteach 2026" forumi konsepsiyasini ishlab chiqish.<br>2. Malakali ekspertlar ishtirokida forum tashkil etish, informatika fani o'qituvchilarining yangi texnologiyalar hamda sun'iy intellekt bo'yicha ko'nikmalarini oshirish. | 2026-yil aprel                                                 | Ijrochilar mablag'lari, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar        | Raqamli texnologiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Andijon viloyati hokimligi |
| <b>III. Davlat boshqaruvida axborot tizimlarini joriy etish</b> |                                                                                                                                                                                             |                                                                                                                                                                                                                                                                                          |                                                                |                                                                                             |                                                                                                       |
| 21.                                                             | Andijon shahridagi chorrahalarida sinov tariqasida sun'iy intellekt texnologiyalari asosida "aqlli chorraha" tizimini joriy qilish.                                                         | 1. Loyihaoldi o'rganish ishlarini amalga oshirish va "aqlli chorraha" tizimi joriy etiladigan chorrahalar ro'yxatini tasdiqlash.<br>2. Zarur texnik vositalarni sotib olish.<br>3. "Aqlli chorraha" tizimini bosqichma-bosqich joriy qilish.                                             | 2025-yil noyabr<br><br>2025-yil dekabr<br><br>2025-2026-yillar | Budjetdan tashqari mablag'lar, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar | Ichki ishlar vazirligi, Andijon viloyati hokimligi                                                    |
| 22.                                                             | Barcha sport maktablarida biometrik identifikatsiya (Face ID) tizimi orqali trenerlar va                                                                                                    | 1. Sport maktablari xodimlarini "ERP-Sport" yagona                                                                                                                                                                                                                                       | 2025-yil noyabr                                                | Ijrochilar mablag'lari                                                                      | Sport vazirligi, Andijon viloyati hokimligi                                                           |

|                                                                   |                                                                                                                                                                                                           |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |                                                              |                                                                                             |                                                     |
|-------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------|
|                                                                   | sport bilan shug'ullanuvchilarning kunlik davomatini elektron monitoring qilib borishni yo'lga qo'yish.                                                                                                   | elektron boshqaruv tizimidan foydalanish bo'yicha o'qitish va xodimlarni tizimga ulash.<br>2. "ERP-Sport" yagona elektron boshqaruv tizimida kunlik davomatni elektron monitoring qilib borishni yo'lga qo'yish.                                                                                                                                                                                             | doimiy                                                       |                                                                                             |                                                     |
| 23.                                                               | Hududdagi barcha qonun hujjatlari buzilganligi uchun ushlangan transport vositalarini saqlash va joylashtirish maydonlarida "Jarima maydonchasi" axborot tizimini joriy etish.                            | 1. Transport vositalarini saqlash va joylashtirish maydonlarini xatlovdan o'tkazish.<br>2. Axborot tizimiga hududdagi barcha tuman (shahar)dagi transport vositalarini saqlash va joylashtirish xizmatini ko'rsatuvchi yuridik shaxslarni ulash.<br>3. Axborot tizimini transport vositalarini saqlash va joylashtirish xizmatini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar faoliyatiga joriy qilish va ularni o'qitish. | 2025-yil noyabr<br><br>2025-yil dekabr<br><br>2026-yil aprel | Ijrochilar mablag'lari                                                                      | Ichki ishlar vazirligi, Andijon viloyati hokimligi  |
| <b>IV. Suv xo'jaligi sohasida axborot tizimlarini joriy etish</b> |                                                                                                                                                                                                           |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |                                                              |                                                                                             |                                                     |
| 24.                                                               | Hududdagi mavjud gidrotexnik inshootlarning raqamli xaritasini shakllantirish. Qishloq xo'jaligi sohasida suv resurslari oxirgi iste'molchigacha yetib borishini monitoring qilish imkoniyatini yaratish. | 1. Hududdagi suv xo'jaligi obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni "ArcGIS" axborot tizimiga kiritish.<br>2. Suv xo'jaligi obyektlari, jumladan, barcha irrigatsiya tarmoqlarining yagona raqamli xaritalari bazasini yaratish.                                                                                                                                                                               | 2026-yil dekabr                                              | Budjetdan tashqari mablag'lar, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar | Suv xo'jaligi vazirligi, Andijon viloyati hokimligi |

|                                                                                          |                                                                                     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                       |                                                                                       |                                                                   |
|------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------|
|                                                                                          |                                                                                     | 3. Qishloq va suv xo‘jaligi sohasida suv resurslari oxirgi iste’molchigacha yetib borishini monitoring qilish imkoniyatini yaratish. Bunda kosmik texnologiyalar imkoniyatlaridan ham foydalanishni yo‘lga qo‘yish.                                                                                                                                                                 |                                                                       |                                                                                       |                                                                   |
| <b>Buxoro viloyati (mas’ul: J. Maxsudov — raqamli texnologiyalar vaziri o‘rinbosari)</b> |                                                                                     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                       |                                                                                       |                                                                   |
|--------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                                  | notariuslar tomonidan berilgan notarial ishonchnomalarning haqiqiylikini tekshirish funksiyalarini joriy etish.                                                                                                                       | bosqichma-bosqich joriy etishni ta'minlash.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |                                                                                             |                                                                                                                                                                                                                                                                                |
| 14.                                              | Chaqiriluvchi va harbiy xizmatga majbur fuqarolarning mudofaa ishlari organlariga chaqiruvini raqamlashtirish.                                                                                                                        | <p>1. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>2. Texnik yo'riqnoma ishlab chiqish va axborot tizimlarini integratsiya qilish.</p> <p>3. Chaqiruv xabarnomalarini elektron shaklda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali yuborishni yo'lga qo'yish.</p> <p>4. "Raqamli hukumat" doirasida aholi va tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan davlat xizmatlari to'g'risida elektron xabardor qilish tizimi orqali fuqarolarga chaqiruv bo'yicha SMS xabarnoma yuborishni yo'lga qo'yish.</p> | <p>2025-yil noyabr</p> <p>2025-yil dekabr</p> <p>2025-yil dekabr</p> <p>2026-yil yanvar</p> | Mudofaa vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi                                                                                                                                                                                                                            |
| 15.                                              | Kommunal xizmatlar uchun hisob-kitob qilish va hisobvaraqlardagi mablag'larni nazorat qilish, ularni hisobga olish va hisobdan chiqarish bo'yicha kommunal xizmatlardan foydalanuvchilarning yagona ma'lumotlar bazasini joriy etish. | <p>1. Loyihaoldi o'rganish ishlarini olib borish hamda tahliliy jadvallarni ishlab chiqish.</p> <p>2. Ma'lumotlar bazasining egasi etib "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" davlat muassasasini belgilash.</p> <p>3. Kommunal xizmatlardan foydalanuvchilarning yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish, kommunal tashkilotlarning axborot tizimlari bilan integratsiya qilish.</p>                                                                                                                        | <p>2025-yil dekabr</p> <p>2026-yil mart</p> <p>2026-yil dekabr</p>                          | <p>Raqamli texnologiyalar vazirligi,</p> <p>Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi,</p> <p>Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi</p> <p>"Hududgazta'minot" AJ,</p> <p>"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ,</p> <p>"O'zsuvta'minot" AJ</p> |
| <b>"Raqamli hukumat" tizimini rivojlantirish</b> |                                                                                                                                                                                                                                       |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |                                                                                             |                                                                                                                                                                                                                                                                                |
| 16.                                              | Nodavlat notijorat tashkilotlarga "Raqamli hukumat" tizimining Idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali belgilangan tartibda elektron idoralararo hamkorlikni amalga oshirishga ruxsat berish.                               | <p>1. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-sentabrdagi 516-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>2. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                    | <p>2025-yil oktabr</p> <p>2025-yil dekabr</p>                                               | Raqamli texnologiyalar vazirligi                                                                                                                                                                                                                                               |
| 17.                                              | Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari                                                                                                                                                                                                 | 1. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | 2025-yil noyabr                                                                             | Adliya vazirligi                                                                                                                                                                                                                                                               |

|     |                                                                                                                                                                                                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |                                                                      |                                                |
|-----|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------|
|     | <p>muhoqamasi portali (regulation.adliya.uz)ni BMT Elektron hukumatni rivojlantirish reytingining Elektron ishtirok etish indeksi talablari asosida takomillashtirish.</p>                                               | <p>normativ-huquqiy hujjat loyihasi yuzasidan bildirilgan fikr va takliflarga hujjat loyihasi muallifi tomonidan berilgan javoblar jamoatchilikka to'siqlarsiz ochiq tarzda ko'rinishini ta'minlash.</p> <p>2. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhoqamasi portalida loyiha muhoqamasi jarayonida qabul qilingan takliflarning mazkur hujjat imzolangach inobatga olinganligi tasdig'ini ko'rsatish.</p> <p>Bunda bildirilgan taklif qatorida qabul qilingan hujjat va uning tegishli bandi jamoatchilikka to'siqlarsiz ochiq tarzda ko'rinishini ta'minlash.</p> <p>3. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhoqamasi portali faoliyatini muntazam yoritib borish maqsadida portalning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini yo'lga qo'yish va ularni portalga integratsiya qilish.</p> | <p>2025-yil dekabr</p> <p>2026-yil fevral</p>                        |                                                |
| 18. | <p>“Raqamli hukumat” tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalashning yagona axborot tizimini (OneID) takomillashtirish.</p>                                                                                           | <p>1. Yangi raqamli servislarni, jumladan, foydalanuvchi tomonidan shaxsga doir ma'lumotlarni boshqarish va fuqarolarning “Raqamli profili” funksionalini o'z ichiga olgan OneID tizimining zamonaviy yangi talqinini ishlab chiqish.</p> <p>2. Tizimni modernizatsiya qilish bo'yicha texnik topshiriq ishlab chiqish.</p> <p>3. Yangilangan OneID tizimini sinovdan o'tkazish va ishga tushirish.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | <p>2025-yil noyabr</p> <p>2025-yil dekabr</p> <p>2026-yil yanvar</p> | <p>Raqamli texnologiyalar vazirligi</p>        |
| 19. | <p>Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish tizimini takomillashtirish maqsadida IT audit tizimini amalga oshirishni yo'lga qo'yish.</p> | <p>1. IT audit tizimi operatorini, vakolatlari, funksiyalari va vazifalarini belgilashni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p> <p>2. IT audit tizimini joriy qilish va rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | <p>2026-yil fevral</p> <p>2026-yil mart</p>                          | <p>Raqamli texnologiyalar vazirligi</p>        |
| 20. | <p>Korrupsiya holatlari haqida xabardor qilish</p>                                                                                                                                                                       | <p>Korrupsiya holatlari haqida xabardor qilish imkonini beruvchi</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          | <p>Har chorakda</p>                                                  | <p>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi</p> |

|     |                                                                                                                                                                             |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |                                                                |                                                                 |
|-----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------|
|     | imkonini beruvchi maxsus platforma — eanticor.uz tizimini takomillashtirish.                                                                                                | maxsus platformaning ochiqqligini oshirish hamda jamoatchilik oldida hisobdorlikni ta'minlash maqsadida portalga kelib tushayotgan korrupsiya holatlari bo'yicha murojaatlar haqida batafsil hisobot berib borish.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                |                                                                 |
| 21. | “Raqamli hukumat” dasturi doirasida yaratilayotgan axborot tizimlarining xavfsizlik darajasini oshirish.                                                                    | “Raqamli hukumat” dasturi doirasida yaratilayotgan axborot tizimlarining majburiy ravishda Axborot xavfsizligi monitoringi xizmati UzSOCga ulanishini belgilovchi tegishli tartibni tasdiqlash.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | 2025-yil dekabr                                                | Raqamli texnologiyalar vazirligi                                |
| 22. | Davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimi va resurslarining kompleks ekspertizasini soddalashtirish.                                                             | Loyihaning pasporti va konsepsiyasini ko'rib chiqish tartibini bekor qilish, loyiha texnik hujjati ekspertizasini faqat elektron shaklda “Raqamli hukumat” tizimining Axborot tizimi va resurslarining yagona reyestri orqali o'tkazish hamda ekspertizadan o'tkazish xizmatlarini to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish yo'li bilan ko'rsatishni yo'lga qo'yish.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | 2026-yil fevral                                                | Raqamli texnologiyalar vazirligi, “Kiberxavfsizlik markazi” DUK |
| 23. | Ochiq ma'lumotlar portali — “data.egov.uz” tizimini BMT Elektron hukumatni rivojlantirish reytingining Elektron ishtirok etish indeksi talablari asosida takomillashtirish. | <p>1. Ochiq ma'lumotlar portalida foydalanuvchilar tomonidan so'ralgan yangi turdagi ma'lumotlar to'plamini e'lon qilish tartibini tasdiqlash. Bunda quyidagilarni inobatga olish:</p> <p>a) foydalanuvchilar tomonidan yangi turdagi ma'lumotlar to'plami bo'yicha kelib tushgan so'rov va takliflarga javob berish tartibi;</p> <p>b) yangi ochiq ma'lumotlar to'plamini e'lon qilish maqsadida ovoz to'plash tartibi;</p> <p>v) yangi turdagi ma'lumotlar to'plamini muallif vazirlik yoki idora tomonidan portalga joylashtirish majburiyati.</p> <p>2. “data.egov.uz” — Ochiq ma'lumotlar portalida tasdiqlangan tartib asosida foydalanuvchilar tomonidan so'ralgan yangi turdagi ma'lumotlar to'plamini e'lon qilib borish.</p> <p>3. Ochiq ma'lumotlar portali bilan bog'liq tanlov, xakaton va tadbirlarni tashkil etish.</p> | <p>2025-yil dekabr</p> <p>Har chorakda</p> <p>Har chorakda</p> | Milliy statistika qo'mitasi                                     |

|     |                                                                                                                                                          |                                                                                                                                                                             |                 |                                                             |
|-----|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|-------------------------------------------------------------|
| 24. | BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi doirasida baholanadigan Mahalliy onlayn xizmatlar indeksida O'zbekiston ko'rsatkichlarini yaxshilash. | 1. Toshkent shahar hokimligining yangi interaktiv portalini ( <a href="https://tashkent.uz">https://tashkent.uz</a> ) takomillashtirish bo'yicha konsepsiya ishlab chiqish. | 2025-yil noyabr | Toshkent shahar hokimligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi |
|     |                                                                                                                                                          | 2. Portalni to'laqonli ishga tushirish.                                                                                                                                     | 2025-yil dekabr |                                                             |
|     |                                                                                                                                                          | 3. Yangi interaktiv portalning kontentini doimiy tarzda yangilab borish.                                                                                                    | Doimiy          |                                                             |

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-sentabrdagi PQ-286-son qaroriga  
4-ILOVA

**Davlat organlari axborot tizimlari bilan integratsiya qilish orqali Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida joriy etiladigan xizmatlar**

**RO'YXATI**

| T/r | Davlat xizmati nomi                                                                                                                                                                                                                                                        | Joriy etish muddati | Mas'ul ijrochilar                     |
|-----|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------|---------------------------------------|
| 1.  | Onlayn nazorat-kassa mashinalari, virtual kassa va fiskal modulga texnik xizmat ko'rsatish markazlarining davlat reyestriga kiritish (chiqarish)                                                                                                                           | 2026-yil yanvar     | Soliq qo'mitasi                       |
| 2.  | Ko'chma savdo obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish                                                                                                                                                                                                                            | 2026-yil mart       |                                       |
| 3.  | Qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rnini qoplash                                                                                                                                                                                                                          | 2026-yil mart       |                                       |
| 4.  | Fiskal xotiraga ega bo'lgan nazorat-kassa mashinasini fiskal xotiraga ega bo'lgan nazorat-kassa mashinasining ro'yxatdan o'tkazish kartochkasini bergan holda faoliyat amalga oshiriladigan joy bo'yicha davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tkazish (chiqarish) | 2026-yil mart       |                                       |
| 5.  | Vakolatli iqtisodiy operatorlar reyestriga kiritish                                                                                                                                                                                                                        | 2026-yil aprel      | Bojxona qo'mitasi                     |
| 6.  | Intellectual mulk obyektlarining bojxona reyestriga kiritish                                                                                                                                                                                                               | 2026-yil aprel      |                                       |
| 7.  | Eksportbop qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda biologik himoya usulini qo'llash xarajatlarining bir qismini qoplash                                                                                                                                            | 2026-yil fevral     | Qishloq xo'jaligi vazirligi           |
| 8.  | Chorvachilik xo'jaliklariga xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramol, qo'y va echkilar uchun subsidiya ajratish                                                                                                                                                | 2026-yil fevral     |                                       |
| 9.  | Xarid qilingan zamonaviy sholi urug'ini ekish seyalkalari va ko'chat ekish uskunalarini qiymatining bir qismini qoplab berish                                                                                                                                              | 2026-yil mart       |                                       |
| 10. | Omborxonalarni jihozlash, shuningdek, quritish, saralash va qadoqlash uskunalarini xarid qilish xarajatlarining bir qismini qoplash                                                                                                                                        | 2026-yil aprel      | O'zbekiston fermerlari kengashi       |
| 11. | Dukkakli ekinlar yetishtirish uchun suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish uchun sarflangan xarajatlarning bir qismini qoplash                                                                                                                                        | 2026-yil aprel      | Agrosanoatni rivojlantirish agentligi |
| 12. | Poliz ekinlari yetishtirish uchun suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish uchun sarflangan xarajatlarning bir qismini qoplash                                                                                                                                          | 2026-yil aprel      |                                       |

|     |                                                                                                                                                                                                                                                            |                 |                                                  |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|--------------------------------------------------|
| 13. | Kartoshka yetishtirish uchun suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish uchun sarflangan xarajatlarning bir qismini qoplash                                                                                                                               | 2026-yil may    |                                                  |
| 14. | Ozuqabop ekinlar yetishtirish uchun suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish uchun sarflangan xarajatlarning bir qismini qoplash                                                                                                                        | 2026-yil may    |                                                  |
| 15. | Donli (g'alla va yormabop) ekinlar yetishtirish uchun suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish uchun sarflangan xarajatlarning bir qismini qoplash                                                                                                      | 2026-yil may    |                                                  |
| 16. | Advokatlik guvohnomasini berish, almashtirish va tiklash                                                                                                                                                                                                   | 2026-yil iyun   | Adliya vazirligi                                 |
| 17. | Hujjatlardagi imzoning haqiqiyligini shahodatlash                                                                                                                                                                                                          | 2026-yil iyun   |                                                  |
| 18. | Ixtiroga patent olish                                                                                                                                                                                                                                      | 2026-yil iyun   |                                                  |
| 19. | Foydali modelga patent olish                                                                                                                                                                                                                               | 2026-yil iyun   |                                                  |
| 20. | Sanoat namunasiga patent olish                                                                                                                                                                                                                             | 2026-yil iyun   |                                                  |
| 21. | Seleksiya yutug'iga patent olish                                                                                                                                                                                                                           | 2026-yil iyun   |                                                  |
| 22. | Integral mikrosxemalar topologiyalarini ro'yxatdan o'tkazish                                                                                                                                                                                               | 2026-yil iyul   |                                                  |
| 23. | Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish                                                                                                                                                                                                    | 2026-yil iyul   |                                                  |
| 24. | Tadbirkorlik subyektlarini qayta davlat ro'yxatidan o'tkazish                                                                                                                                                                                              | 2026-yil iyul   |                                                  |
| 25. | Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini to'xtatish va tugatish                                                                                                                                                                                                | 2026-yil iyul   |                                                  |
| 26. | Tadbirkorlik subyektlari bo'lgan yuridik shaxslarning vakolatxona va filiallarini hisobga olish (chiqarish)                                                                                                                                                | 2026-yil iyul   |                                                  |
| 27. | Davlat organlari va muassasalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish                                                                                                                                                                                            | 2026-yil iyul   |                                                  |
| 28. | Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish                                                                                                                                                                                              | 2026-yil iyul   |                                                  |
| 29. | Bog'dorchilik-uzumchilik shirkatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish                                                                                                                                                                                        | 2026-yil iyul   |                                                  |
| 30. | Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish                                                                                                                                                                                                      | 2026-yil iyul   |                                                  |
| 31. | Uy-joy mulkdorlari shirkatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish                                                                                                                                                                                              | 2026-yil iyul   |                                                  |
| 32. | Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarni tugatish (yuridik shaxslar birlashmalari, uy-joy mulkdorlari shirkatlari, advokatlik tuzilmalari)                                                                                              | 2026-yil iyul   | Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi |
| 33. | Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarning davlat reyestridan yuridik shaxslar to'g'risida ko'chirma berish (davlat organlari va muassasalari, yuridik shaxslar birlashmalari, uy-joy mulkdorlari shirkatlari, advokatlik tuzilmalari)  | 2026-yil iyul   |                                                  |
| 34. | Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazasini rasmiy ro'yxatdan o'tkazish                                                                                                                                              | 2026-yil noyabr |                                                  |
| 35. | Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan tadbirkorlik subyektlariga har bir kasanachining dastlabki uch oy davomidagi kasanachilik faoliyati uchun bir oylik o'rtacha daromadi miqdorida bir martalik subsidiya ajratish | 2026-yil avgust |                                                  |
| 36. | Qorako'lchilik subyektlariga ular tomonidan eksport qilingan qorako'l va qorako'lcha teri uchun subsidiya berish                                                                                                                                           | 2026-yil avgust | Veterinariya qo'mitasi                           |
| 37. | O'zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olish                                                                                                                     | 2026-yil avgust | Ichki ishlar vazirligi                           |

|     |                                                                                                                                                                                                         |                  |                                                                        |
|-----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------|------------------------------------------------------------------------|
| 38. | Davlat ekologik ekspertizasini rasmiylashtirish                                                                                                                                                         | 2026-yil sentabr | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi |
| 39. | “Yoshlar daftari”ga kiritilgan moddiy ahvoli og‘ir yoshlarga bir martalik moddiy yordam ko‘rsatish                                                                                                      | 2026-yil oktabr  | “Yoshlar daftari” jamg‘armasi                                          |
| 40. | “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni tadbirkorlikka va kasb-hunarga o‘qitish kurslari xarajatlarini qoplash                                                                                         | 2026-yil noyabr  |                                                                        |
| 41. | “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarning davlat va nodavlat ta‘lim tashkilotlarida avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash o‘quv kursi xarajatlarini qoplash uchun subsidiya ajratish | 2026-yil noyabr  |                                                                        |
| 42. | “Yoshlar daftari”ga kiritilgan dehqonchilik va tomorqa xo‘jaligini yuritish bilan shug‘ullanayotgan yoshlarga urug‘lik va ko‘chatlar xarid qilish uchun subsidiya ajratish                              | 2026-yil dekabr  |                                                                        |
| 43. | “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilish uchun noturar joyning ijara xarajatlarini qoplash                                                            | 2026-yil dekabr  |                                                                        |
| 44. | O‘simliklar karantini ostidagi mahsulotlar uchun karantin ruxsatnomasini berish                                                                                                                         | 2027-yil yanvar  | O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi                            |
| 45. | O‘simliklar karantini ostidagi mahsulotlar uchun fitosanitariya sertifikatlarini berish                                                                                                                 | 2027-yil yanvar  |                                                                        |
| 46. | Davlat mulklarini ijaraga berish                                                                                                                                                                        | 2027-yil yanvar  | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi                                |
| 47. | O‘lchash vositalarini davlat sinovidan o‘tkazish                                                                                                                                                        | 2027-yil yanvar  | O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi                  |
| 48. | O‘lchash vositalarini qiyoslashdan o‘tkazish                                                                                                                                                            | 2027-yil yanvar  |                                                                        |
| 49. | Sinov vositalarini metrologik attestatsiyadan o‘tkazish                                                                                                                                                 | 2027-yil yanvar  |                                                                        |
| 50. | O‘lchash vositalarini kalibrlashdan o‘tkazish                                                                                                                                                           | 2027-yil yanvar  |                                                                        |

*Izoh: mazkur ro‘yxatga “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtirish komissiyasining qarori bilan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-sentabrdagi PQ-286-son qaroriga  
5-ILOVA

**Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali hayotiy vaziyatlar yuzaga kelganda foydalanuvchilarga avtomatik tarzda yuboriladigan elektron xabarnomalar**

#### RO‘YXATI

| T/r | Xabarnoma turi | Xabarnoma asosida foydalanuvchiga taklif etiladigan xizmatlar | Hayotiy vaziyat yuzaga kelganda xabarnoma yuborishga mas’ul tashkilot | Muddati |
|-----|----------------|---------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|---------|
|-----|----------------|---------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|---------|

|     |                                                                                                                                                                                |                                                                                                                                     |                                                                        |                 |
|-----|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------|-----------------|
| 1.  | Davlat tibbiyot muassasalarida davolanish uchun imtiyozli yo‘llanma navbati kelganligi to‘g‘risida                                                                             | Imtiyozli yo‘llanma navbati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish                                                                       | Sog‘liqni saqlash vazirligi                                            | 2025-yil oktabr |
| 2.  | Tibbiy komissiyalarning transport vositalarini boshqarishga doir qarshi ko‘rsatmalar mavjudligi (mavjud emasligi)ga oid tibbiy xulosa (083/h) shakllantirilganligi to‘g‘risida | Transport vositalarini boshqarishga doir tibbiy qarshi ko‘rsatmalar mavjudligi (mavjud emasligi) to‘g‘risidagi ma’lumotnomani olish |                                                                        | 2025-yil oktabr |
| 3.  | Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi yopilganligi to‘g‘risida                                                                                                             | Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasini yuklab olish                                                                            |                                                                        | 2025-yil oktabr |
| 4.  | Davlat tomonidan bepul dori vositalari yetkazib berilishi to‘g‘risida                                                                                                          | Davlat tomonidan foydalanuvchiga ajratilgan bepul dori vositalari haqida ma’lumot olish                                             |                                                                        | 2026-yil may    |
| 5.  | Bolalarni profilaktik emlash muddati to‘g‘risida                                                                                                                               | Shaxsiy kabinet orqali profilaktik emlash holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish                                                  |                                                                        | 2025-yil dekabr |
| 6.  | Homilador ayollarga rejalashtirilgan tibbiy ko‘riklar (skrining) to‘g‘risida                                                                                                   | Shaxsiy kabinet orqali rejalashtirilgan tibbiy ko‘riklar (skrining) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish                               |                                                                        | 2026-yil dekabr |
| 7.  | Gaz va issiqlik ta‘minotidan qarzidorlik yuzaga kelganligi to‘g‘risida                                                                                                         | Kommunal xizmatlar bo‘yicha qarzidorlikni to‘g‘ridan-to‘g‘ri portal va mobil ilova orqali to‘lovni amalga oshirish                  | Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, “Hududgazta‘minot” AJ | 2025-yil oktabr |
| 8.  | Soliq qarzidorligi yuzaga kelganligi to‘g‘risida                                                                                                                               | Soliq qarzidorligi bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri portal va mobil ilova orqali to‘lovni amalga oshirish                                | Soliq qo‘mitasi                                                        | 2025-yil noyabr |
| 9.  | Avtomototransport vositalariga qo‘llanilgan jarimalar to‘g‘risida                                                                                                              | Jarimalarni to‘lash yoki shikoyat yuborish                                                                                          | Ichki ishlar vazirligi                                                 | 2025-yil noyabr |
| 10. | Avtotransport vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi haqida                                                                                                               | Majburiy sug‘urta va ishonchnoma rasmiylashtirish, avtotransport vositalari oynalari tusini qoraytirish                             |                                                                        | 2025-yil noyabr |
| 11. | Bola umumiy o‘rta ta‘lim maktabini tamomlaganligi to‘g‘risida                                                                                                                  | Umumiy o‘rta ta‘lim to‘g‘risida shahodatnomani olish, texnikumlarga hujjat topshirish                                               | Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi                                | 2026-yil avgust |
| 12. | Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish                                                              | Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazishga ariza berish    |                                                                        | 2026-yil iyul   |

|     |                                                                                                               |                                                                                                               |                                                                                       |                 |
|-----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|
|     | muddati kelganligi to'g'risida                                                                                |                                                                                                               |                                                                                       |                 |
| 13. | Fuqaro nomiga ko'chmas mulk rasmiylashtirilganligi to'g'risida                                                | Turarjoy obyektlarining kadastr pasportini shakllantirish                                                     | Adliya vazirligi                                                                      | 2025-yil noyabr |
| 14. | Bola 7 yoshga to'lganda uning ota-onasiga yuboriladigan xabarnoma                                             | Bolani maktabning 1-sinfiga joylashtirish                                                                     |                                                                                       | 2025-yil dekabr |
| 15. | Chet elga chiqishga taqiq o'rnatilganligi to'g'risida                                                         | Taqiq ma'lumotlari bilan tanishish                                                                            | Majburiy ijro byurosi                                                                 | 2025-yil dekabr |
| 16. | Mol-mulkni sotish va boshqa shaxsga o'tkazishni taqiqlab yoki xatlab qo'yilganligi to'g'risida ma'lumot       | Taqiq ma'lumotlari bilan tanishish                                                                            |                                                                                       | 2025-yil dekabr |
| 17. | Davlat oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun topshirilgan imtihon natijalari e'lon qilinganligi to'g'risida | Imtihon natijalari bilan tanishish                                                                            | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Bilim va malakalarni baholash agentligi | 2025-yil noyabr |
| 18. | Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga sanatoriylarda davolanish uchun navbati kelganligi to'g'risida     | Sanatoriy navbati ma'lumotlari bilan tanishish                                                                | Ijtimoiy himoya milliy agentligi                                                      | 2025-yil dekabr |
| 19. | Jismoniy shaxslar nomiga xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari rasmiylashtirilganligi to'g'risida          | Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari orqali kelayotgan tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishish | Bojxona qo'mitasi                                                                     | 2025-yil noyabr |

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-sentabrdagi PQ-286-son [qaroriga](#)  
6-ILOVA

**Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida yangi joriy etiladigan, shuningdek, kompozit shaklda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari**

#### RO'YXATI

| T/r                 | Davlat xizmatlari nomi                                                 | Ma'muriy reglament ishlab chiqish muddati | Loyiha texnik hujjatlarini tasdiqlash muddati | Yagona portal bilan integratsiya qilish muddati | Xizmatni Yagona portalda joriy etish muddati | Mas'ul ijrochi         |
|---------------------|------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------|-----------------------------------------------|-------------------------------------------------|----------------------------------------------|------------------------|
| <b>I. Fuqarolik</b> |                                                                        |                                           |                                               |                                                 |                                              |                        |
| 1.                  | Shaxsning jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilganligi to'g'risida | 2025-yil noyabr                           | 2025-yil dekabr                               | 2026-yil fevral                                 | 2026-yil mart                                | Ichki ishlar vazirligi |

|                                                    |                                                                                                                                                                                                                                             |                 |                 |                 |                |                           |
|----------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|-----------------|-----------------|----------------|---------------------------|
|                                                    | ma'lumotnoma berish.                                                                                                                                                                                                                        |                 |                 |                 |                |                           |
| 2.                                                 | Xorijiy mamlakatlarda qayd etilgan tug'ilishni FHDY organlarida ro'yxatdan o'tkazish.                                                                                                                                                       | 2025-yil noyabr | 2025-yil dekabr | 2026-yil fevral | 2026-yil mart  | Adliya vazirligi          |
| <b>II. Ijtimoiy himoya va mehnat munosabatlari</b> |                                                                                                                                                                                                                                             |                 |                 |                 |                |                           |
| 3.                                                 | "Yoshlar daftari"ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarning davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash o'quv kursida o'qish xarajatlarini qoplash.                           | 2025-yil dekabr | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral | 2026-yil mart  | Yoshlar ishlari agentligi |
| 4.                                                 | "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni tadbirkorlikka va kasb-hunarga o'qitish uchun sarflangan xarajatlarni qoplash.                                                                                                                     | 2025-yil dekabr | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral | 2026-yil aprel | Yoshlar ishlari agentligi |
| 5.                                                 | "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yosh tadbirkor yoki o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tgan yosh fuqaroga faoliyatini amalga oshirayotgan noturar joyning 12 oygacha ijara xarajatlarini qoplash. | 2025-yil dekabr | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral | 2026-yil aprel | Yoshlar ishlari agentligi |
| 6.                                                 | "Yoshlar daftari"ga kiritilgan bemor yoshlarga mamlakatda yoki xorijiy davlatlarda davolanish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun subsidiya ajratish.                                                                                  | 2025-yil dekabr | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral | 2026-yil aprel | Yoshlar ishlari agentligi |
| 7.                                                 | Yoshlarning safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni                                                                                                                                                                                      | 2025-yil dekabr | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral | 2026-yil aprel | Yoshlar ishlari agentligi |



|                      |                                                                                                                 |                 |                  |                 |                 |                                              |
|----------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|------------------|-----------------|-----------------|----------------------------------------------|
| 13.                  | 086 shakldagi tibbiy ma'lumotnomani olish.                                                                      | -               | 2025-yil noyabr  | 2025-yil dekabr | 2026-yil yanvar | Sog'liqni saqlash vazirligi                  |
| 14.                  | Tibbiyot xodimlari malakasini oshirishga ariza berish.                                                          | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral  | 2026-yil mart   | 2026-yil may    | Sog'liqni saqlash vazirligi                  |
| 15.                  | Nikohga kiruvchi shaxslarning tibbiy ko'rikdan o'tganligi haqidagi yakuniy tibbiy ma'lumotlari bilan tanishish. | -               | 2025-yil oktabr  | 2025-yil noyabr | 2025-yil dekabr | Sog'liqni saqlash vazirligi                  |
| <b>IV. Transport</b> |                                                                                                                 |                 |                  |                 |                 |                                              |
| 16.                  | Avtotransport vositasining davlat raqami belgisini tiklash (texnik shikast yetgan).                             | 2025-yil dekabr | 2026-yil yanvar  | 2026-yil fevral | 2026-yil mart   | Ichki ishlar vazirligi                       |
| <b>V. Ta'lim</b>     |                                                                                                                 |                 |                  |                 |                 |                                              |
| 17.                  | Davlat oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun to'lov-kontrakt shartnomalarini rasmiylashtirish va olish.     | -               | 2025-yil sentabr | 2025-yil oktabr | 2025-yil noyabr | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi |
| 18.                  | Kasbiy ta'lim muassasalari o'quvchilari o'qishini ko'chirish yoki qayta tiklash.                                | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral  | 2026-yil mart   | 2026-yil aprel  | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi |
| 19.                  | Xorijiy davlatlardagi oliy ta'lim muassasalaridan o'qishni respublika oliy ta'lim muassasalariga ko'chirish.    | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral  | 2026-yil mart   | 2026-yil may    | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi |
| 20.                  | Xorijiy davlatlarda ilmiy daraja olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiyalash.           | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral  | 2026-yil mart   | 2026-yil may    | Oliy attestatsiya komissiyasi                |
| 21.                  | Kasbiy ta'lim muassasalari o'quvchilariga akademik ma'lumotnoma (transkript) berish.                            | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral  | 2026-yil mart   | 2026-yil may    | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi |

|                                                           |                                                                                                                               |                 |                  |                 |                 |                                                                                                                                                                                                     |
|-----------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|------------------|-----------------|-----------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 22.                                                       | Oliy ta'lim muassasalariga ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish uchun ariza topshirish.                              | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral  | 2026-yil mart   | 2026-yil may    | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi                                                                                                                                                        |
| 23.                                                       | Sport mahorat maktablariga o'qishga kirish uchun ariza berish.                                                                | 2026-yil avgust | 2026-yil sentabr | 2026-yil oktabr | 2026-yil oktabr | Sport vazirligi                                                                                                                                                                                     |
| 24.                                                       | Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarga menejerlik sertifikatini berish.                     |                 | 2026-yil yanvar  | 2026-yil aprel  | 2026-yil may    | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi                                                                                                                                                             |
| <b>VI. Kadastr, qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi</b> |                                                                                                                               |                 |                  |                 |                 |                                                                                                                                                                                                     |
| 25.                                                       | Kommunal xizmatlardan qarzdorlik mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnoma berish.                                             | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral  | 2026-yil mart   | 2026-yil may    | Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ, "Hududgazta'minot AJ", "O'zsuvta'minot" AJ |
| 26.                                                       | Aholi, sanoat va kommunal-maishiy korxonalar gaz jihozlariga profilaktik va texnik xizmat ko'rsatish.                         | 2025-yil dekabr | 2026-yil mart    | 2026-yil aprel  | 2026-yil may    | "Hududgazta'minot" AJ                                                                                                                                                                               |
| 27.                                                       | Gaz tarmoqlarida qurilish montaj xizmatiga murojaat qilish.                                                                   | 2025-yil dekabr | 2026-yil mart    | 2026-yil aprel  | 2026-yil may    | "Hududgazta'minot" AJ                                                                                                                                                                               |
| 28.                                                       | Yer osti suv olish inshootlarini suv hisoblash vositalari bilan jihozlashni ro'yxatga olish va muhrlash uchun ariza yuborish. | 2026-yil fevral | 2026-yil mart    | 2026-yil aprel  | 2026-yil may    | Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, Soliq qo'mitasi                                                                                                                                            |
| <b>VII. Standartlashtirish</b>                            |                                                                                                                               |                 |                  |                 |                 |                                                                                                                                                                                                     |
| 29.                                                       | Sinov laboratoriyalarining texnik jihatdan malakaliligini                                                                     | 2026-yil mart   | 2026-yil aprel   | 2026-yil may    | 2026-yil iyun   | O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi                                                                                                                                               |

|                        |                                                                                                                                                           |                 |                  |                 |                 |                                                                        |
|------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|------------------|-----------------|-----------------|------------------------------------------------------------------------|
|                        | ma'qullash uchun ariza yuborish.                                                                                                                          |                 |                  |                 |                 |                                                                        |
| 30.                    | O'lchash vositalarini qiyoslashdan o'tkazish uchun ariza yuborish.                                                                                        | 2026-yil mart   | 2026-yil aprel   | 2026-yil may    | 2026-yil iyun   | O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi                  |
| 31.                    | Sinov vositalarini metrologik attestatsiyadan o'tkazish uchun ariza yuborish.                                                                             | 2026-yil avgust | 2026-yil sentabr | 2026-yil oktabr | 2026-yil noyabr | O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi                  |
| 32.                    | O'lchash vositalarini kalibrlashdan o'tkazish uchun ariza yuborish.                                                                                       | 2026-yil avgust | 2026-yil sentabr | 2026-yil oktabr | 2026-yil noyabr | O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi                  |
| 33.                    | Mahsulotlar muvofiqligini baholash uchun ariza yuborish.                                                                                                  | 2026-yil yanvar | 2026-yil mart    | 2026-yil aprel  | 2026-yil may    | O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi                  |
| 34.                    | Muvofiqlikni baholash sohasida xodim sifatida ishtirok etishga talabgor bo'lgan mutaxassislarni sertifikatlashtirish uchun ariza yuborish.                | 2026-yil yanvar | 2026-yil mart    | 2026-yil aprel  | 2026-yil may    | O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi                  |
| 35.                    | Tovarlarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikat olish uchun ariza yuborish.                                                                          | 2026-yil yanvar | 2026-yil mart    | 2026-yil aprel  | 2026-yil may    | Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, "O'zbekekspertiza" AJ      |
| <b>VIII. Ekologiya</b> |                                                                                                                                                           |                 |                  |                 |                 |                                                                        |
| 36.                    | Atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning III va IV toifasiga mansub faoliyat turlari bo'yicha davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish.                        | 2026-yil yanvar | 2026-yil mart    | 2026-yil aprel  | 2026-yil may    | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi |
| 37.                    | Ekologik xavfli mahsulotlar va chiqindilarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va olib chiqishda ularni ekologik sertifikatlashdan o'tkazish. | 2026-yil fevral | 2026-yil mart    | 2026-yil aprel  | 2026-yil may    | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi |

|                        |                                                                                                                                                                                                         |                 |                 |                 |                 |                                                                        |
|------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|------------------------------------------------------------------------|
| 38.                    | Sanoat, suyuq maishiy, qurilish, tibbiyot, zaharli-kimyoviy va yirik hajmli maishiy chiqindilarni shartnoma asosida olib chiqib ketish.                                                                 | 2026-yil mart   | 2026-yil aprel  | 2026-yil may    | 2026-yil iyul   | Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi |
| <b>IX. Iqtisodiyot</b> |                                                                                                                                                                                                         |                 |                 |                 |                 |                                                                        |
| 39.                    | Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yollangan xodimlarni davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yish.                                                                                          | 2026-yil yanvar | 2026-yil mart   | 2026-yil aprel  | 2026-yil may    | Soliq qo'mitasi                                                        |
| 40.                    | Ko'chmas mulkni ijaraga berishda hisoblangan soliq miqdori bilan tanishish va uni to'lash imkoniyatini yaratish.                                                                                        | -               | 2025-yil noyabr | 2025-yil dekabr | 2026-yil yanvar | Soliq qo'mitasi                                                        |
| 41.                    | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer va ko'chmas mulk solig'idan ozod etish bo'yicha elektron murojaat yuborish.                                                                                         | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral | 2026-yil mart   | 2026-yil iyul   | Soliq qo'mitasi                                                        |
| 42.                    | Sotib olingan tovarlar (xizmatlar) qiymatining bir foizini jismoniy shaxslarga qaytarish (cashback).                                                                                                    | 2026-yil yanvar | 2026-yil mart   | 2026-yil aprel  | 2026-yil may    | Soliq qo'mitasi                                                        |
| <b>X. Madaniyat</b>    |                                                                                                                                                                                                         |                 |                 |                 |                 |                                                                        |
| 43.                    | Madaniyat vazirligi tizimidagi o'rta maxsus ta'lim muassasalari, bolalar musiqa va san'at maktablarini bitirganlik to'g'risidagi guvohnoma ma'lumotlari bilan tanishish va guvohnoma dublikatini olish. | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral | 2026-yil mart   | 2026-yil aprel  | Madaniyat vazirligi                                                    |
| 44.                    | “Ko'cha san'ati va musiqasi” loyihasi                                                                                                                                                                   | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral | 2026-yil mart   | 2026-yil may    | Madaniyat vazirligi                                                    |

|                                                               |                                                                                                                                                            |                 |                 |                 |                 |                                          |
|---------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|------------------------------------------|
|                                                               | ishtirokchilari yagona reyestriga kiritish.                                                                                                                |                 |                 |                 |                 |                                          |
| 45.                                                           | Madaniyat va san'at sohasi xodimlarining malakasini oshirish.                                                                                              | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral | 2026-yil mart   | 2026-yil may    | Madaniyat vazirligi                      |
| 46.                                                           | San'atkor, ijodkor va ijrochilarning mualliflik asarlari yagona reyestriga kiritish.                                                                       | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral | 2026-yil mart   | 2026-yil iyun   | Madaniyat vazirligi                      |
| 47.                                                           | Madaniyat markazlarida qo'shimcha to'garak, badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish.                                                                  | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral | 2026-yil mart   | 2026-yil iyun   | Madaniyat vazirligi                      |
| 48.                                                           | Madaniyat markazlaridagi to'garaklarga a'zo bo'lish.                                                                                                       | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral | 2026-yil mart   | 2026-yil iyul   | Madaniyat vazirligi                      |
| 49.                                                           | San'atkor, ijodkor va ijrochilarni "Ijodkorlar" reyestriga kiritish.                                                                                       | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral | 2026-yil mart   | 2026-yil iyul   | Madaniyat vazirligi                      |
| 50.                                                           | Jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash uchun ariza yuborish.                                                                                            | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral | 2026-yil mart   | 2026-yil may    | Sport vazirligi                          |
| <b>XI. Boshqalar</b>                                          |                                                                                                                                                            |                 |                 |                 |                 |                                          |
| 51.                                                           | Fuqaroning nomiga rasmiylashtirilgan mobil telefon raqamlari to'g'risida ma'lumot olish                                                                    | -               | 2025-yil dekabr | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral | Raqamli texnologiyalar vazirligi         |
| 52.                                                           | Davlat xizmatlari uchun ortiqcha to'langan to'lovlarni qaytarishga elektron murojaat yuborish.                                                             | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral | 2026-yil mart   | 2026-yil may    | Adliya vazirligi                         |
| <b>XII. Kompozit shaklga o'tkaziladigan davlat xizmatlari</b> |                                                                                                                                                            |                 |                 |                 |                 |                                          |
| 53.                                                           | Nikohni qayd etishda nikohlanuvchi tomonlardan birining familiyasi o'zgargan taqdirda nikohlanuvchining xohishiga ko'ra ID-kartani yangisiga almashtirish. | 2025-yil dekabr | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral | 2026-yil mart   | Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi |

|     |                                                                                                                                                                                       |                 |                 |                 |               |                                                                    |
|-----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|-----------------|-----------------|---------------|--------------------------------------------------------------------|
| 55. | Obyektni rekonstruksiya qilishda kompozit shaklda arxitektura rejalashtirish topshirig'ini taqdim etish.                                                                              | 2026-yil fevral | 2026-yil mart   | 2026-yil aprel  | 2026-yil may  | Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Kadastr agentligi |
| 56. | Obyektning ixtisoslashuvi o'zgargan taqdirda kompozit shaklda kadastr pasportini shakllantirish hamda davlat ro'yxatidan o'tkazish.                                                   | 2026-yil fevral | 2026-yil mart   | 2026-yil aprel  | 2026-yil may  | Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Kadastr agentligi |
| 57. | Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tarmoqlariga ulanish (texnik shart olish, loyiha ishlab chiqish, qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish va shartnoma tuzish bilan birgalikda). | 2025-yil noyabr | 2026-yil fevral | 2026-yil fevral | 2026-yil mart | "O'zsuvta'minot" AJ                                                |
| 58. | Elektr tarmoqlariga ulanish (texnik shart olish, loyiha ishlab chiqish, qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish va shartnoma tuzish bilan birgalikda).                              | 2025-yil noyabr | 2026-yil fevral | 2026-yil fevral | 2026-yil mart | "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ                                     |
| 59. | Gaz tarmoqlariga ulanish (texnik shart olish, loyiha ishlab chiqish, qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish va shartnoma tuzish bilan birgalikda).                                 | 2025-yil noyabr | 2026-yil fevral | 2026-yil fevral | 2026-yil mart | "Hududgazta'minot" AJ                                              |
| 60. | Nogironlikni belgilash (bolalikdan nogironlik, I va II guruh nogironligi) va tibbiyot muassasalarida imtiyozli davolanish uchun yo'llanma olish.                                      | 2026-yil fevral | 2026-yil mart   | 2026-yil aprel  | 2026-yil may  | Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Sog'liqni saqlash vazirligi      |
| 61. | Fuqarolarning ruhiy kasalliklar bo'yicha                                                                                                                                              | -               | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral | 2026-yil mart | Adliya vazirligi,                                                  |

|     |                                                                                                                                                                                                                                                                                             |                 |                 |                 |               |                                                    |
|-----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|-----------------|-----------------|---------------|----------------------------------------------------|
|     | dispanser hisobida turishi yoki turmasligi, narkologiya dispanseri hisobida turishi yoki turmasligi, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i holati haqida ma'lumot, hisoblangan ish haqi summolari haqida ma'lumot va mehnat faoliyatini tasdiqlash haqida ma'lumotlarni olish. |                 |                 |                 |               | Raqamli texnologiyalar vazirligi                   |
| 62. | Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazishda elektron raqamli imzo kalitini berish, onlayn nazorat yoki virtual kassa mashinalarini soliq organlarida ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha xizmatlarni kompleks shaklda ko'rsatish.                                                           | 2025-yil dekabr | 2026-yil yanvar | 2026-yil fevral | 2026-yil mart | Adliya vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi |

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-sentabrdagi PQ-286-son qaroriga  
7-ILOVA

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-avgustdagi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyiha boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3245-son qarorining 4-bandi:

(a) quyidagi mazmundagi to'rtinchi va beshinchi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga asosan ta'lim, sog'liqni saqlash, mudofaa, geologiya va sud sohalariga texnologik uskunalar, dasturiy mahsulot, axborot tizimlari, shuningdek, dasturiy apparat komplekslari va ularning ehtiyot qismlarini xarid qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish, bunda ko'rsatilgan faoliyatga Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidentlari uchun belgilangan ajratmalar talablari qo'llanilmaydi;

o'ziga yuklangan vazifalarni amalga oshirish doirasida "Elektron hukumat" tizimining idoralararo integratsiya platformasi orqali davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari, resurslari va boshqa dasturiy mahsulotlaridan ma'lumotlarni axborot xavfsizligi talablariga rioya qilgan holda olish va qayta ishlashga";

(b) to'rtinchi xatboshi oltinchi xatboshi deb hisoblansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-son qarori 9-bandining **to‘rtinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun to‘langan davlat bojlari, yig‘imlar va barcha turdagi to‘lovlarning 11,25 foizi, bunda tushgan mablag‘larning 50 foizi har oyda Yagona portalda elektron davlat xizmatlarini joriy etish va texnik qo‘llab-quvvatlash uchun Yagona integratorga yo‘naltiriladi”.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi PQ-5168-son qarori bilan tasdiqlangan Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari tomonidan yuridik xizmat ko‘rsatiladigan davlat organlarining tuman (shahar) bo‘linmalari va davlat tashkilotlarining **ro‘yxati** quyidagi mazmundagi izoh bilan to‘ldirilsin:

*“Izoh: 2026-yil 1-yanvardan boshlab “E-huquqshunos” elektron tizimidan davlat organlari va tashkilotlarining:*

*yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan tuman (shahar) bo‘linmalari — shartnoma asosida;*

*yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan tuman (shahar) bo‘linmalari — bepul foydalanadi”.*

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi “Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari faoliyatini yanada kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-173-son **qarorida**:

(a) **4-bandda**:

(i) **birinchi xatboshida** “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish” so‘zlari “Raqamli texnologiyalar” so‘zlari bilan almashtirilsin;

(ii) **to‘rtinchi xatboshi** “poliklinikalarni” so‘zidan keyin “(keyingi o‘rinlarda — tashkilotlar)” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

(iii) quyidagi mazmundagi beshinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Bunda 2026-yil 1-yanvardan boshlab yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan tashkilotlar “E-huquqshunos” elektron tizimidan tegishli to‘lovni nazarda tutuvchi shartnoma asosida foydalanadi”;

(b) **5-banddagi** “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish” va “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini” so‘zlari tegishincha “Raqamli texnologiyalar” hamda “Raqamli texnologiyalarni” so‘zlari bilan almashtirilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-357-son qarorining **10-bandida**:

(a) **birinchi xatboshida**:

“Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish” so‘zlari “Raqamli texnologiyalar” so‘zlari bilan almashtirilsin;

(b) **ikkinchi xatboshida**:

“Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat muassasasi” so‘zlari “Raqamli texnologiyalar vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-fevraldagi “Mamlakatimizda raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksportini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-87-son **qarorida**:

(a) 1-band “a” kichik bandining **uchinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“umumiy xizmatlar hajmida xizmatlar eksporti ulushi mahalliy bozor uchun ko‘rsatilgan xizmatlar hajmiga nisbatan past bo‘lgan IT xizmatlar ko‘rsatish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalarni xalqaro IT bozorga olib chiqish, ularning eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha loyihani (Local to Global) (keyingi o‘rinlarda — Loyiha) amalga oshirish”;

(b) 2-bandning **“a” kichik bandi** quyidagi mazmundagi oltinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“IT park tomonidan Dasturda ishtirok etuvchi korxonalarining tadbirkorlik subyektlariga tegishli ko‘chmas mulk obyektlarini o‘n ikki oygacha bo‘lgan ijaraga olish xarajatlarini Dastur doirasidagi mablag‘lar hisobidan bir metr kvadrat maydon uchun tegishli hududda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun belgilangan ijara to‘lovi miqdorining 2 barobaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda tadbirkorlik subyektlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish orqali qoplab berishga ruxsat etiladi”;

(v) 9-band “a” kichik bandining **ikkinchi xatboshisidan** “mazkur” so‘zi chiqarib tashlansin.

*(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.09.2025-y., 07/25/286/0832-son; 05.11.2025-y.,  
06/25/206/1017-son)*